(E)ISSN: 2181-1784
5(20), Feb., 2025
www.oriens.uz

KOLLABORATIV YONDASHUV ASOSIDA INGLIZ TILINI O'QITISH

https://doi.org/10.5281/zenodo.14879903

Xulkaroy MAMATALIYEVA,
Oriental universiteti G'arb tillari katta o'qituvchisi
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Hozirgi zamonaviy tadqiqotchilar kollaborativ o'rganishning ingliz tilini o'rgatishda samarali ekanligini ko'rsatishmoqda. Barcha yondashuvlar o'rganilar ekan, kooperativ o'qitish o'quvchilarning og'zaki ingliz tilini rivojlantirishda ijtimoiy muloqotni kuchaytirishi aniqlangan va bu yondashuv ingliz tili o'rganuvchi talabalarning eng dolzarb kamchiliklari o'laroq gapirish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish tomonlama ustunlikka ega ekanligi o'rganishga kirishilgan mavzuga muhim ahamiyat kasb etadi.

Annotation. Current modern researchers show that collaborative learning is effective in teaching English. While studying all the approaches, it was found that cooperative teaching enhances social communication in the development of students' spoken English and that this approach has advantages in developing speaking and communication skills, which are the most pressing shortcomings of English language learners. It is important for the subject to be studied.

Аннотация. Современные исследования показывают, что совместное обучение эффективно при преподавании английского языка. При изучении всех подходов было установлено, что совместное обучение усиливает социальную коммуникацию в развитии устного английского языка учащихся, а данный подход имеет преимущество в развитии разговорных и коммуникативных навыков, что является наиболее актуальным недостатком студентов, изучающих английский язык.

Tayanch so'zlar: *Kollaborativ yondashuv, Collaborative Problem Solving – CPS, jamoaviy munozaralar, ro'lli o'yinlar, kommunikativ kompetentsiya.*

Keywords: *Collaborative approach, Collaborative Problem Solving - CPS, team discussions, role-playing games, communicative competence.*

Ключевые слова: *Коллаборативный подход, Совместное решение проблем – CPS, командные дискуссии, ролевые игры, коммуникативная компетентность.*

Tadqiqotlar kollaborativ yondashuv asosida o'qitish o'quvchilarning ingliz tilidagi darslarga qiziqishini oshirishi ko'rsatilgan bo'lib, yana bir tadqiqot, kollaborativ o'rganish o'quvchilarning motivatsiyasi va o'rganish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. Bu tadqiqotchilar kollaborativ yondashuvning ingliz tilini o'rgatishda samarali ekanligini ko'rsatmoqda[1].

Kollaborativ yondashuvlarning tarixi 1960-70-yillarga borib taqaladi. Bu sohada ko'p olimlar tadqiqot olib borganlar. Shulardan biri Lev Vygotsky bo'lib, u kollaborativ o'rganish va ijtimoiy o'rganish nazariyasiga asos solgan. Bundan tashqari, Johnson&Johnsons ham kollaborativ o'rgatish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borishgan.

Lev Vygotsky kollaborativ o'rganishning asosiy nazariyotchilaridan biri bo'lib, uning fikriga ko'ra, o'quvchilar bir-birlari bilan muloqot orqali yangi bilimlarni o'zlashtiradilar. Vygotskyning "yaqin rivojlanish zonasi" (Zone of Proximal Development) tushunchasi, o'quvchilar boshqalar yordamida o'z imkoniyatlarini kengaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu yondashuvda o'qituvchi va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish katta ahamiyatga ega.[2] Johnson& Johnsonsning kollaborativ o'rgatish yondashuvi beshta asosiy elementga asoslanadi: ijobiy

[1] https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1353197.pdf
[2] https://www.simplypsychology.org/vygotsky.html

o‘zaro bog‘liqlik, individual va guruh mas'uliyati, yuzma-yuz yordamchi o‘zaro ta'sir, ijtimoiy ko‘nikmalar va guruhni tahlil qilish kabilar. Bu elementlar birgalikda o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikda ishlashini va o‘rganish jarayonini yaxshilashni ta'minlaydi.[3]

Jamoaviy muammolarni hal qilish (Collaborative Problem Solving) orqali ingliz tilini o‘rgatish

Jamoaviy muammolarni hal qilish (Collaborative Problem Solving – CPS) – bu zamonaviy ta'lim jarayonlarida keng qo‘llaniladigan samarali yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarning muloqot qilish, hamkorlikda ishlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. CPS Lev Vygotskyning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga asoslangan bo‘lib, unda talabalar birgalikda bilim olish orqali murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli bajaradilar. Ushbu maqolada CPSning nazariy asoslari, zamonaviy tadqiqotlar va uning ingliz tilini o‘rgatishda qo‘llanilishi haqida batafsil to‘xtalamiz. CPSning nazariy bazasi Vygotskyning “Yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasiga tayangan. Unga ko‘ra, talabalar murakkab vazifalarni mustaqil bajara olmagan holatlarda jamoaviy ish orqali muvaffaqiyatga erishishilari mumkin. CPS shuningdek, konstruktivizm tamoyillarini qo‘llaydi, ya'ni bilim o‘quvchilarning faol o‘zaro muloqoti va tajribasi orqali shakllanadi. Tadqiqotlar CPSning samaradorligini quyidagicha tasdiqlaydi:

1. CPS ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonda talabalar bir-birining fikrlarini tahlil qiladi va yangi yechimlarni yaratadi (Scardamalia va Bereiter 1994).
2. CPS XXI asr ko‘nikmalaridan biri sifatida e'tirof etilgan bo‘lib, uning yordamida talabalar muloqot qilish, muammolarni hal qilish va jamoaviy qarorlar qabul qilishda sezilarli yutuqlarga erishadilar (OECD 2015).
3. CPSni chuqur o‘rganish jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi yondashuv sifatida ta'riflagan. Uning tadqiqotlari talabalar bilimlarni yaxshiroq mustahkamlashga erishganini ko‘rsatgan (Dillenbourg 1999).

So‘nggi yillarda CPS bo‘yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilib, uning samaradorligi tasdiqlangan bo‘lib, 2020-yil Yaponiyada CPS orqali ingliz tilini o‘qitish o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning yozma va og‘zaki til qobiliyatlarini yaxshilagan. AQShda 2023-yil “Case Study Method” modeli ingliz tili darslarida qo‘llanilib, talabalarni murakkab, real hayotga oid masalalarni tahlil qilishga o‘rgatishda katta samaradorlik ko‘rsatgan. Evropa Ittifoqida olib borilgan izlanishlar 2021-yilda STEM fanlari bo‘yicha CPSni qo‘llash orqali talabalar bilimlarini chuqurlashtirish va ularni real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlash imkoniyati yaratildi. Bu yondashuv ingliz tilini o‘rgatishda ijodiy va moslashuvchan metod sifatida ham muvaffaqiyatli qo‘llanilgan.

CPSning ingliz tilini o‘rgatishda qo‘llanilishi haqida aytish mumkinki, jamoaviy mammolarni hal qilish ingliz tili darslarida samarali metodlar sifatida qo‘llashning bir nechta usullari mavjud.

A. **Jamoaviy munozaralar:** Talabalar muayyan mavzu bo‘yicha muammolarni aniqlaydi, ularni tahlil qiladi va yechim taklif qiladi. Masalan, hozigi kundagi dolzarb ekologik muammolarni muhokama qilish orqali til ko‘nikmalarini rivojlantirish va sohaga oid yangi so‘zlar va ilmiy atamalarga murojat qilish orqali jamoada fikr almashiladi.

B. **Rolli o‘yinlar:** Bu metod ko‘p qo‘llanishi bilan birga eng mashxur usullardan biri hisoblanadi. Har bir talaba belgilangan rolni ijro etib, guruh bo‘lib muammoni hal qilishga harakat qiladi. Masalan, biznes loyihalarni va shartnomalarni ishlab chiqish yoki xalqaro muzokaralarni taqlid qilishga urunish orqali til o‘rganish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

[3] https://www.researchgate.net/profile/David-Johnson 113/publication/284476425_Theoretical_approaches_to_cooperative_learning/links/5657bd0e08aefe619b1f33ca/Theoretical-approaches-to-cooperative-learning

C. **Loyihaga asoslangan topshiriqlar:** Talabalar uzoq muddatli loyihalarda ishlash orqali real hayotdagi muammolarni ingliz tilida hal qilishni o'rganadilar. Masalan, "Sayohatni rejalashtirish" mavzusida byudjet, marshrut va logistika rejasini tuzish, business reja asosida loyiha ishlab chiqish.

CPS o'quvchilarning quyidagi ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega:

- Talabalar birgalikda ishlash orqali samarali muloqot qilishni o'rganadilar.
- CPS murakkab masalalarni hal qilish qobiliyatini oshiradi.
- CPS talabalarni real hayotdagi vaziyatlarga tayyorlaydi va tilni amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytish munkinki, kollaborativ yondashuv o'quv jarayonida o'quvchilarning jamoaviy ishlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu usul nafaqat lingvistik bilimlarni mustahkamlash, balki XXI asr ko'nikmalaridan biri bo'lgan muloqot, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni shakllantirishda ham samaradorlikni oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar CPS yordamida o'zaro hamkorlikda o'rganib, bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantiradilar. Ingliz tilini o'qitishda bu yondashuv nafaqat o'quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini oshiradi, balki ularni real hayotdagi vaziyatlarga tayyorlab, mustaqil va faol, talabgor kadr sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois, CPS metodologiyasi kollaborativ yondashuvning yorqin misoli sifatida har bir pedagogning faoliyatida asosiy o'rin tutishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Scardamalia, M., & Bereiter, C. (1994). *Knowledge Building and Collaborative Learning*. Educational Psychologist, 26(3-4), 191-229.
2. OECD. (2015). *Skills for Social Progress: The Power of Social and Emotional Skills*. OECD Publishing.
3. Dillenbourg, P. (1999). *Collaborative Learning: Cognitive and Computational Approaches*. Advances in Learning and Instruction Series. Pergamon.
4. Evropa Ittifoqi (2021). *Collaborative Problem Solving in STEM Education*. European Commission Research Reports.
5. AQSh Ta'lim Vazirligi (2023). *Case Study Methods in English Language Learning*. National Education Research Journal.
6. Yaponiya Ta'lim Kengashi (2020). *Collaborative Learning Practices in English Education*. Tokyo Academic Press.
7. https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1353197
8. https://www.simplypsychology.org/vygotsky.html
9. https://www.researchgate.net/profile/David-Johnson